



## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRINING BUYRUG'I

20 25 yil " 19 " noyabr

№ 355

Toshkent sh.

### **"Elektron tibbiy karta", "Elektron poliklinika", "Elektron shifoxona" va "Elektron retsept" modullari yo'riqnomasini tasdiqlash to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasining "Dori vositalari va farmatsevtika faoliyati to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi farmatsevtika tarmog'ida islohotlarni chuqurlashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2019-yil 30-dekabrda PQ-4554-son qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Sog'liqni saqlash tizimini raqamlashtirish jarayonlarini yanada jadallashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2025-yil 8-sentabrda 570-son qarori va Sog'liqni saqlash vazirining "Elektron retsept" tizimini joriy qilish to'g'risida" 2025-yil 19-sentabrda 292-son buyrug'i ijrosini ta'minlash maqsadida **buyuraman:**

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Sog'liqni saqlash tizimini raqamlashtirish jarayonlarini yanada jadallashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2025-yil 8-sentabrda 570-son qarorida:

Sog'liqni saqlash vazirligiga "Elektron sog'liqni saqlash" axborot tizimida yaratilgan **"Elektron poliklinika", "Elektron shifoxona", "Elektron tibbiy karta", "Elektron retsept" modullaridan** foydalanish hamda ushbu modullarga tegishli ma'lumotlarni uzatish yo'riqnomalarini belgilangan tartibda tasdiqlasin va amaliyotga joriy etish vazifasi yuklatilganligi;

2025-yil 10-dekabrda boshlab Toshkent shahri hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Respublikada sog'liqni saqlash tizimini va aholiga tibbiy xizmat ko'rsatish tamoyillarini takomillashtirish orqali sohani isloh qilishni izchil davom ettirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2025-yil 19-mayda PF-88-son Farmoniga muvofiq tajriba-sinov loyihasi amalga oshiriladigan 15 ta tuman (shahar)larda, 2026-yilning yakuniga qadar esa respublikaning boshqa barcha hududlarida barcha tibbiyot va farmatsevtika tashkilotlari Raqamli sog'liqni saqlash platformasiga, ushbu platforma amaliyotga joriy etilgunga qadar Sog'liqni saqlash vazirligining "Elektron sog'liqni saqlash" axborot tizimiga integratsiya asosida ulanishini hamda "Elektron poliklinika", "Elektron shifoxona", "Elektron tibbiy karta", "Elektron retsept" modullari bilan belgilangan ma'lumotlarni real vaqt rejimida almashilishini ta'minlash belgilanganligi ma'lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

## 2. Quyidagilar:

“Elektron retsept” modulidan foydalanish hamda ushbu modulga tegishli ma’lumotlarni uzatish yo‘riqnomasi **1-ilovaga**;

“Elektron poliklinika” va “Elektron shifoxona” modullaridan foydalanish hamda ushbu modullarga tegishli ma’lumotlarni uzatish yo‘riqnomasi **2-ilovaga**;

“Elektron tibbiy karta” modulidan foydalanish hamda ushbu modulga tegishli ma’lumotlarni uzatish yo‘riqnomasi **3-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

Mazkur yo‘riqnomalar “Sog‘liqni saqlash loyihalari markazi” loyiha ofisi, O‘zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi, O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha vakil bilan kelishilgan.

**3. Nazorat inspeksiyasi bo‘limi** (Sultanov) **Tibbiy yordamni tashkillashtirish departamenti** (Alijanov) va **Yuridik bo‘limi** (Djurayev) bilan birgalikda barcha davlat tibbiyot muassasalarida “Elektron sog‘liqni saqlash” axborot tizimida yaratilgan “Elektron poliklinika”, “Elektron shifoxona”, “Elektron tibbiy karta” modullaridan foydalanish hamda ushbu modullarga tegishli ma’lumotlarni uzatish yo‘riqnomalarini belgilangan tartibda foydalanishi nazoratini ta’minlasin.

**4. Xususiy tibbiyot va JST masalalari bo‘limi** (Gulyamov), **Tibbiyot tashkilotlarini litsenziyalash va akkreditatsiyalash markazi** (Asamutdinov) **Yuridik bo‘limi** (Djurayev) bilan birgalikda:

tibbiy faoliyati bilan shug‘ullanuvchi tadbirkorlik subyektlari tomonidan xususiy tibbiyot tashkilotlarida “Elektron sog‘liqni saqlash” axborot tizimida yaratilgan “Elektron poliklinika”, “Elektron shifoxona”, “Elektron tibbiy karta” modullaridan foydalanish hamda ushbu modullarga tegishli ma’lumotlarni uzatish yo‘riqnomalaridan belgilangan tartibda foydalanish;

elektron retseptning xususiy tibbiyot tashkilotlarida to‘g‘ri yuritilishini nazorat qilish choralarini ko‘rsin.

**5. Dori vositalari ehtiyojini aniqlash bo‘limi** (Qodirov), **“Farmasevtika mahsulotlari xavfsizligi markazi” davlat muassasasi** (Temirov):

dori vositalari va tibbiy buyumlarni chakana realizatsiyasi bilan shug‘ullanuvchi tadbirkorlik subyektlarida “Raqamli sog‘liqni saqlash” platformasiga, ushbu platforma amaliyotga joriy etilgunga qadar Sog‘liqni saqlash vazirligining “Elektron sog‘liqni saqlash” axborot tizimiga integratsiya asosida ulanishni hamda “Elektron retsept” moduli bilan belgilangan ma’lumotlarni real vaqt rejimida almashilishini ta’minlash;

Yagona integrator - “UZINFOCOM” MChJ bilan birgalikda “Elektron retsept” moduli orqali dorixonalarda elektron retsept tizimi joriy etilishi doirasida retseptli dori vositalarni retseptsiz realizatsiya qilingan holatlarda real vaqt rejimida yuboriladigan xabarnoma asosida ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi bayonnomalarni tuzish imkoniyatini yaratsin.

**6. Fan ta'lim va innovatsiyalar boshqarmasi (Ismailov), Tibbiy yordamni tashkillashtirish departamenti (Alijanov), Xususiy tibbiyot va JST masalalari bo'limi (Gulyamov), Tibbiyot tashkilotlarini litsenziyalash va akkreditatsiyalash markazi (Asamutdinov), Dori vositalari ehtiyojini aniqlash bo'limi (Qodirov), “Farmasevtika mahsulotlari xavfsizligi markazi” davlat muassasasi (Temirov) Raqamli texnologiyalarni joriy etish va muvofiqlashtirish boshqarmasi (Eshnazarov)** bilan birgalikda tibbiyot tashkilotlari va dorixonalarda “Elektron sog'liqni saqlash” axborot tizimiga integratsiya asosida ulanishini hamda “Elektron poliklinika”, “Elektron shifoxona”, “Elektron tibbiy karta”, “Elektron retsept” modullaridan foydalanish va ushbu modullar bilan belgilangan ma'lumotlar real vaqt rejimida almashilishi yuzasidan o'quv-seminarlar va malaka oshirish kurslari tashkil etilishini ta'minlasin.

**7. Raqamli texnologiyalarni joriy etish va muvofiqlashtirish boshqarmasi (Eshnazarov)** Davlat axborot tizimlarini yaratish va qo'llab-quvvatlash bo'yicha yagona integrator – “UZINFOCOM” MChJ bilan birgalikda:

“Elektron sog'liqni saqlash” axborot tizimiga integratsiya asosida ulanishi hamda “Elektron poliklinika”, “Elektron shifoxona”, “Elektron tibbiy karta”, “Elektron retsept” modullari bilan belgilangan ma'lumotlar real vaqt rejimida almashish imkoniyati yaratilishini;

tibbiyot tashkilotlari va dorixonalarning mavjud axborot tizimlari Sog'liqni saqlash vazirligining Raqamli sog'liqni saqlash platformasiga va axborot tizimiga ulash yoki ularning so'roviga asosan ularda vazirlikning “Elektron sog'liqni saqlash” axborot tizimi modullarini o'rnatish ishlari bepul amalga oshirilishini ta'minlansin.

**8.** Mazkur buyruq ijrosining nazoratini vazirning o'rinbosarlari A. Boboev va O. Omonovlar zimmasiga yuklansin.

**Vazir**



**A. Xudayarov**

**O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni  
saqlash vazirining 2025 -yil  
19. 11. dagi 358-son  
buyrug‘iga  
1 -ILOVA**

**“Elektron retsept” modullaridan foydalanish hamda ushbu modullarga  
tegishli ma’lumotlarni uzatish bo‘yicha**

**YO‘RIQNOMA**

Mazkur yo‘riqnoma 2025-yil 10-dekabrda boshlab Toshkent shahri hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Respublikada sog‘liqni saqlash tizimini va aholiga tibbiy xizmat ko‘rsatish tamoyillarini takomillashtirish orqali sohani isloh qilishni izchil davom ettirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2025-yil 19-maydagi PF–88-son Farmoniga muvofiq tajriba-sinov loyihasi amalga oshiriladigan 15 ta tuman (shahar)larda, 2026-yilning yakuniga qadar esa respublikaning barcha hududlarida barcha tibbiyot tashkilotlari va dorixonalarda Raqamli sog‘liqni saqlash platformasiga, ushbu platforma amaliyotga joriy etilgunga qadar Sog‘liqni saqlash vazirligining “Elektron sog‘liqni saqlash” axborot tizimiga integratsiya asosida ulanishini hamda “Elektron poliklinika”, “Elektron shifoxona”, “Elektron tibbiy karta”, “Elektron retsept” modullari bilan belgilangan ma’lumotlarni real vaqt rejimida almashish tartibini belgilaydi.

**I-bob. Umumiy qoidalar**

1. Barcha tibbiyot tashkilotlari hamda farmasevtika tashkilotlarida “Elektron retsept” modulidan foydalanish hamda ushbu modulga tegishli ma’lumotlarni uzatish ushbu yo‘riqnoma asosida amalga oshiriladi.

2. Tibbiyot tashkilotlari va dorixonalarning mavjud axborot tizimlarini Sog‘liqni saqlash vazirligining “Raqamli sog‘liqni saqlash” platformasiga ushbu platforma amaliyotga joriy etilgunga qadar Sog‘liqni saqlash vazirligining “Elektron sog‘liqni saqlash” axborot tizimiga integratsiya asosida ulanishini hamda “Elektron retsept” moduli bilan belgilangan ma’lumotlarni real vaqt rejimida almashilishini ta’minlash lozim.

2. Mazkur yo‘riqnoma alohida toifadagi kuchli ta’sir qiluvchi moddalar, tarkibida giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarni saqlovchi dori vositalari muomalasiga nisbatan tatbiq etilmaydi.

O‘zbekiston Respublikasida davlat ro‘yxatidan o‘tgan va tibbiyot amaliyotida qo‘llanilishiga ruxsat etilgan dori vositalariga elektron retsept 1-ilovada ko‘rsatilgan shaklga muvofiq rasmiylashtiriladi.

Shifokor tomonidan elektron retseptni rasmiylashtirishda mazkur yo'riqnomaning 2-ilovasida ko'rsatilgan asosiy retseptura qisqartmalaridan foydalanilishi mumkin.

3. Retseptda aynan qanday dori vositasi yozilganligini aniqlashda chalg'ituvchi ingredientlarning nomiga yaqin qisqartmalarni yozishga yo'l qo'yilmaydi.

5. Ekstemporal usulda tayyorlanadigan dori vositalari uchun retsept rasmiylashtirilishida qattiq va sochiluvchan dori moddalari grammlarda (0,001; 0,5; 1,0), suyuq dori moddalarining miqdori millilitr, tomchilarda ko'rsatiladi.

6. Bemorga dori vositalarini shoshilinch ravishda yoki зудlik bilan berish zarur bo'lgan taqdirda, retsept blankasining yuqori qismiga "cito" (shoshilinch) yoki "statim" (zudlik bilan) belgisi qo'yiladi.

Ekstemporal usulda tayyorlanadigan dori vositalari tarkibidagi dori moddalarining nomlari, shuningdek ularning dozasi, davriyligi, qabul qilish vaqti va davomiyligi, dori vositalarining oziq-ovqat iste'moliga qarab oqilona qo'llanishi (ovqatdan oldin, ovqatlanish vaqtida, ovqatdan keyin) ko'rsatilgan holda mazkur yo'riqnomaga muvofiq amalga oshiriladi.

## **II-bob. Elektron retsept moduli asosida retsept bilan beriladigan dori vositalarini tayinlash**

7. Shifokor tibbiyot tashkilotida statsionar sharoitda davolanayotgan bemorga ushbu muassasada mavjud bo'lmagan dori vositalarini tayinlaydi.

8. Shifokor tomonidan tibbiyot tashkilotida statsionar sharoitda davolanayotgan bemorga tayinlangan retseptda dori vositalarini oziq-ovqat iste'moliga qarab (ovqatlanishdan oldin, ovqatlanish vaqtida, ovqatlanishdan keyin) qo'llanilishi bo'yicha ma'lumotlar ko'rsatilmasligi mumkin.

9. Tibbiyot tashkilotlarida bemorlarga dori vositalarini tayinlash, tashxis qo'yish, diagnostika va davolash standartlari hamda milliy protokollar asosida bir martalik, kunlik va kurs dozalarini aniqlash orqali kasallikning turi, og'irligi va xususiyatiga hamda bemorning yoshini va dori vositalarini tibbiyotda qo'llanishiga doir yo'riqnomada ko'rsatilgan dorilarning o'zaro ta'sirini hisobga olgan holda davolovchi shifokor tomonidan amalga oshiriladi.

10. Kasalligi surunkali bo'lgan bemorlar uchun ambulatoriya sharoitida kasalliklarning xalqaro tasnifi ro'yxatiga kiritilgan dori vositalari hamda asosiy farmakologik ta'siriga ko'ra anabolik faolligi bilan ajralib turadigan dori vositalariga retsept berilganda davolovchi shifokor tomonidan istisno tariqasida retseptda ularning 60 kunlik davolash kursiga yetarli miqdori, qolgan tayyor dori vositalariga esa 90 kunlik davolash kursiga yetarli miqdori ko'rsatilishi mumkin.



11. Tibbiy ko'rsatmalar bo'lgan holatda (hayotiy ko'rsatmalari bo'yicha, individual ko'tara olmaslik) O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan tasdiqlangan diagnostika va davolash standartlariga kirmagan, ushbu muassasada mavjud bo'lmagan dori vositalari shifokorlar konsiliumi asosida tayinlanadi va tibbiy hujjatlarda qayd etiladi.

### **III-bob. Elektron retsept moduli orqali tayinlangan dori vositalarini rasmiylashtirish**

12. Elektron retseptda bemorning F.I.Sh, yoshi, tug'ilgan yili va sanasi; tibbiyot tashkilotining nomi, shifokorning F.I.Sh, dori vositalari to'g'risidagi ma'lumot (xalqaro patentlanmagan yoki original dori nomi, kunlik dozasi, qabul qilish yoki yuborish usuli, miqdori, davomiyligi) elektron retseptga bevosita shifokor tomonidan kiritiladi hamda elektron tasdiqlash usullari orqali tasdiqlanadi.

13. Barcha tibbiyot tashkilotlarida bemorga dori vositalari majburiy tartibda xalqaro patentlanmagan nomi bo'yicha shuningdek, xalqaro patentlanmagan nomi mavjud bo'lmasa ta'sir etuvchi moddasi (faol modda) yoki savdo nomi elektron retseptda yozilishi lozim.

14. Quyidagi hollarda bemorga tayinlangan dori vositalarining asosiligi tibbiyot tashkilotlarining bo'lim mudiri yoki navbatchi shifokori yoxud klinik farmakologi bilan kelishilishi lozim:

bemorga bir vaqtning o'zida besh va undan ortiq dori vositalari (dori vositalarining turidan qat'iy nazar) tayinlanganda;

asosiy kasallikning asoratlari yoki hamroh kasalliklari mavjud bo'lganda.

15. Tibbiyot tashkilotining davolovchi shifokori tomonidan tayinlangan retseptda dori vositasining xalqaro patentlanmagan nomi, tarkibi, shakli, uni tayyorlash va berish haqidagi yozma ko'rsatmasi lotin tilida, dori vositalarini qo'llash usuli esa davlat tilida ko'rsatilishi shart.

16. Davolanayotgan bemor yoki bemorning qonuniy vakiliga elektron retsept orqali berilgan dori vositalari haqidagi ma'lumotlar uning elektron tibbiy kartasida qayd etiladi.

### **IV-bob. "Elektron retsept" moduliga elektron retsept ma'lumotlarini uzatish**

17. Elektron retsept tibbiyot tashkilotida joriy qilingan tibbiy axborot tizimida shifokor tomonidan tegishli qaydlari mavjud bo'lgan bemor uchun rasmiylashtiriladi.

18. Shifokor tomonidan elektron retsept rasmiylashtirilgandan so'ng ushbu retsept ma'lumotlari "Elektron retsept" moduliga uzatiladi hamda Sog'liqni saqlash vazirligining axborot tizimiga integratsiya qilingan dorixonalarda elektron shaklda ko'rinadi.

## **V-bob. Yakuniy qoidalar**

19. Elektron retsept modulining tibbiyot tashkilotlarida to'g'ri yuritilishi Sog'liqni saqlash vazirligi va uning hududiy bo'linmalari tomonidan, uning dorixonalarda qo'llanilishi "Farmasevtika mahsulotlari xavfsizligi markazi" tomonidan nazorat qilinadi.

20. Sog'liqni saqlash vazirligi elektron retsept moduli asosida dori vositalarini tayinlashda yuzaga keladigan muammolarni hamda ushbu elektron retsept modulida tartibga solinmagan masalalarni hal qilish vakolatiga ega.

21. Mazkur yo'riqnoma talablarining buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar qonunchilik hujjatlariga muvofiq javobgar bo'ladilar.

**“Elektron retsept” modullaridan  
foydalanish hamda ushbu modullarga  
tegishli ma’lumotlarni uzatish  
yo‘riqnomasiga  
1-ILOVA**

**Elektron resept shakli**

Farmatsevtga QR-kodni  
ko‘rsating yoki JSHSHIR va  
himoya kodini ayting



**Oddiy**

Bemor tomonidan to‘lanadi

|             |   |
|-------------|---|
| Retsept ID  | - |
| Himoya kodi | - |

**Bemor**

|        |   |
|--------|---|
| F.I.Sh | - |
| Yoshi  | - |
| MED ID | - |

**Muassasa**

|          |   |
|----------|---|
| Nomi     | - |
| Shifokor | - |
| Telefon  | - |

**Retsept**

|                    |   |
|--------------------|---|
| <b>Rp</b>          |   |
| XPN                | - |
| Doza               | - |
| Chiqarilish shakli | - |

**D.S.**

|                      |   |
|----------------------|---|
| Qo‘llash usuli       | - |
| Bir martalik doza    | - |
| Qabul qilish soni    | - |
| Davomiyligi          | - |
| Qabul qilish vaqti   | - |
| Qabul qilish tartibi | - |
| Qabul qilish davri   | - |
| Umumiy miqdori       | - |
| Izoh                 | - |

|                     |   |
|---------------------|---|
| Buyurilgan sana     | - |
| Amal qilish muddati | - |



**“Elektron retsept” modullaridan  
foydalanish hamda ushbu modullarga  
tegishli ma'lumotlarni uzatish  
yo'riqnomasi  
2-ILOVA**

**Asosiy retseptura qisqartmalari**

| <b>T/r</b> | <b>Qisqartmalar</b>      | <b>To'liq yozilgan holati</b>           | <b>Davlat tilidagi tarjimasi</b>              |
|------------|--------------------------|-----------------------------------------|-----------------------------------------------|
| 1.         | aa                       | ana                                     | teng miqdorda                                 |
| 2.         | as. asid                 | asidum                                  | kislota                                       |
| 3.         | aer                      | aerosolum                               | aerozol                                       |
| 4.         | amr.                     | ampulla                                 | ampula                                        |
| 5.         | aq.                      | aqua                                    | suv                                           |
| 6.         | aq. pur.                 | aqua purificata                         | tozalangan suv                                |
| 7.         | but.                     | butyrum                                 | moy (qattiq moy)                              |
| 8.         | comp., srs.              | compositus (a, um)                      | murakkab birikma                              |
| 9.         | D.                       | Da (Detur, Dentur)                      | ber (berilsin)                                |
| 10.        | D.S.                     | Da, Signa,<br>Detur, Signetur           | ber, belgila, berilsin, belgilansin           |
| 11.        | D.t.d.                   | Da (Dentur) tales doses                 | shunday dozalarda berilsin                    |
| 12.        | dil.                     | dilutus                                 | suyultirilgan                                 |
| 13.        | div.in p.ayeq            | divide in partes<br>aequales            | teng miqdorga bo'ling<br>(qismlarga ajrating) |
| 14.        | emuls.                   | emulsio                                 | emulsiya                                      |
| 15.        | yextr.                   | yextractum                              | ekstrakt                                      |
| 16.        | F                        | fiat (fiant)                            | hosil bo'lsin                                 |
| 17.        | gran.                    | granulum                                | granullar                                     |
| 18.        | gtt.                     | gutta, guttae                           | tomchi, tomchilar                             |
| 19.        | gtt. peror.              | guttae peroralis                        | ichish uchun tomchilar                        |
| 20.        | inf.                     | infusum                                 | damlama                                       |
| 21.        | in amp.                  | in ampullis                             | ampulalarda                                   |
| 22.        | in tabl.                 | in tab(u)lettes                         | tabletkalarda                                 |
| 23.        | in tab. prolong.<br>obd. | in tab(u)lettis<br>prolongatis obductis | Uzoq ta'sir qiluvchi qoplangan<br>tabletkalar |
| 24.        | lin.                     | linimentum                              | liniment                                      |
| 25.        | Liq.                     | liquor                                  | suyuqlik                                      |
| 26.        | lot.                     | lotion                                  | losyon                                        |
| 27.        | mixt.                    | mixtura                                 | mikstura                                      |
| 28.        | M.pil.                   | massa pilularum                         | pilyulya massasi                              |
| 29.        | M.                       | Misse, Misseatur                        | aralashtir (aralashtirilgan bo'lsin)          |
| 30.        | N.                       | numero                                  | raqam bilan                                   |
| 31.        | ol.                      | oleum                                   | moy (suyuq)                                   |

|     |               |                   |                               |
|-----|---------------|-------------------|-------------------------------|
| 32. | past.         | pasta             | pasta                         |
| 33. | pil.          | pilula            | hab dori                      |
| 34. | p.ayeq.       | rartes ayequales  | teng miqdorda                 |
| 35. | rrt., rrayes. | praesipitatus     | cho'kma                       |
| 36. | pulv.         | pulvis            | kukun                         |
| 37. | q.s.          | quantum satis     | qancha talab qilsa, keragicha |
| 38. | r., rad.      | radix             | ildiz                         |
| 39. | Rr.           | Recire            | ol                            |
| 40. | Rer.          | Repete, Repetatur | takrorla (takrorlansin)       |
| 41. | rhiz.         | rhizoma           | ildizpoya                     |
| 42. | S.            | Signa, Signetur   | belgila (belgilansin)         |
| 43. | sem.          | semen             | urug'                         |
| 44. | simpl.        | simplex           | oddiy                         |
| 45. | sir.          | sirupus           | sirop (sharbat)               |
| 46. | sol.          | solutio           | eritma                        |
| 47. | supp.         | suppositorium     | shamcha (suppozitoriy)        |
| 48. | spr.          | spray             | sprey                         |
| 49. | tab.          | tab(u)letta       | tabletk                       |
| 50. | t-ra, tinct.  | tinctura          | tindirma                      |
| 51. | ung.          | unguentum         | surtma                        |
| 52. | vitr.         | vitrum            | shisha idish                  |

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni  
saqlash vazirining 2025-yil  
19.11. dagi 355-son  
buyrug'iga  
2-ILOVA

**“Elektron poliklinika” va “Elektron shifoxona” modullaridan  
foydalanish hamda ushbu modullarga tegishli  
ma'lumotlarni uzatish bo'yicha  
YO'RIQNOMA**

Ushbu yo'riqnoma barcha tibbiyot tashkilotlarida “Elektron poliklinika” va “Elektron shifoxona” modulidan foydalanish hamda ushbu modullarga tegishli ma'lumotlarni uzatish tartibini belgilaydi.

**I-bob. Umumiy qoidalar**

1. “Raqamli sog'liqni saqlash” platformasiga ushbu platforma amaliyotga joriy etilgunga qadar Sog'liqni saqlash vazirligining “Elektron sog'liqni saqlash” axborot tizimiga integratsiya asosida ulanishi orqali “Elektron poliklinika” va “Elektron shifoxona” modullari bilan belgilangan ma'lumotlarni real vaqt rejimida almashinuvi ta'minlanadi.

2. “Elektron poliklinika” moduli ambulator sharoitdagi bemorlarni ro'yxatdan o'tkazish, ularning tashxislari, tibbiy ko'rsatkichlari, buyurilgan dori vositalari va ambulator davolanish jarayonlarini elektron shaklda yuritishdan iborat.

“Elektron shifoxona” moduli statsionar davolanish, laborator va instrumental tahlil natijalari, shifoxona bo'ylab tibbiy xizmatlar, davolanish jarayonlari va ichki hisobotlarni elektron shaklda yuritish uchun mo'ljallangan.

3. Mazkur modullardan faqatgina tizimda ro'yxatdan o'tgan va tizimga identifikatsiya qilingan tibbiyot xodimlar (shifokorlar, hamshiralar, registratorlar va ma'muriy texnik xodimlar) foydalanish huquqiga ega.

**II-bob. Modullardan foydalanish tartibi**

4. Foydalanuvchilar tizimga kirishda JShShIR orqali identifikatsiya qilinadi va OneID orqali amalga oshiriladi. Har bir foydalanuvchi o'ziga tegishli login va parol uchun javobgardir.

5. “Elektron poliklinika” modulida quyidagi funksiyalar mavjud:

bemorni poliklinikaga kiritish (ro'yxatdan o'tkazish);

tashxis va tibbiy ko'rsatkichlarni kiritish;

ambulator davolanish yozuvlarini elektron yuritish;

dori vositalari bo'yicha retseptlarni shakllantirish;

elektron tibbiy xizmatlar to'g'risidagi ma'lumotlarni eksport qilish yoki boshqa tashkilotga uzatish;

boshqa modullar bilan axborot va ma'lumotlar almashinuvini yo'lga qo'yish.

“Elektron shifoxona” modulida quyidagi funksiyalar mavjud:

statsionar bemorlarni qabul qilish va ro'yxatdan o'tkazish;

laborator va instrumental tahlil natijalarini kiritish va saqlash;

davolanish jarayonlarini elektron yuritish;

shifoxona ichki hisobotlarini shakllantirish;

boshqa modullar va tashqi tizimlar bilan ma'lumot almashinuvi.

6. Tibbiyot tashkilotining mas'ul shaxsi har bir foydalanuvchi tomonidan kiritilayotgan ma'lumotlarning to'liqligi, aniqligi va yangilanishi uchun javobgardir.

7. Mazkur modullar yordamida shifokorlar tezkor va aniq ma'lumotlarga ega bo'lib, qisqa muddat ichida bemorga samarali tibbiy xizmat ko'rsatilishini ta'minlaydi.

### **III-bob. Ma'lumotlarni uzatish va almashish tartibi**

8. Mazkur modullar orqali shakllangan ma'lumotlar Sog'liqni saqlash vazirligining “Yagona tibbiyot axborot tizimi” (keying o'rinlarda – DMED)dagi modullar va boshqa tibbiyot tashkilotlarining mavjud axborot tizimlari bilan integratsiya qilingan holda ishlaydi.

9. Ma'lumotlar modullar va axborot tizimlari integratsiyasi orqali (API, HL7, FHIR protokollari yordamida) avtomatik tarzda uzatiladi. Zarur hollarda ma'lumotlar PDF, XML yoki boshqa formatlarda eksport qilinadi.

10. Ma'lumotlar uzatilishida axborot xavfsizligi talablari qat'iy qo'llaniladi. Har bir uzatilayotgan fayl kriptografik himoya (elektron tasdiqlash usullari, shifrlash algoritmlari) yordamida tasdiqlanadi.

11. Bemorning shaxsiy ma'lumotlarini uzatishda O'zbekiston Respublikasining “Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida” va “Fuqarolarning sog'lig'ini saqlash to'g'risida”gi qonunlariga qat'iy amal qilinadi.

12. Ma'lumotlar quyidagi hollarda uzatiladi:

bemor boshqa tibbiyot tashkilotiga yuborilganda;

statistik yoki tahliliy hisobotlarni tayyorlash zarur bo'lganda;

DMEDga integratsiyani amalga oshirish uchun (jumladan, “Elektron tibbiy karta”, “Elektron retsept”, “Elektron yo'llanma” modullari).

### **IV-bob. Foydalanuvchilarning huquq va majburiyatlari**

13. Foydalanuvchi quyidagi huquqlarga ega:

modullarda o'ziga biriktirilgan bemor ma'lumotlariga kirish;

yangi ma'lumot kiritish va mavjud ma'lumotlarni yangilash;

zarur hollarda elektron shaklda ma'lumotlarni eksport qilish.

14. Foydalanuvchining majburiyatlari:

tizimdagi ma'lumotlarni maxfiy saqlash;

uchinchi shaxslarga login va parolni oshkor qilmaslik;

har bir tibbiy yozuvni real vaqtda kiritish;

noto'g'ri yoki soxta ma'lumot kiritish holatlariga yo'l qo'ymaslik.

15. Foydalanuvchi tomonidan yo'l qo'yilgan buzilishlar uchun javobgarlik amaldagi qonunchilikka muvofiq belgilanadi.

#### **V-bob. Ma'lumotlarni saqlash va arxivlash**

16. Modullarda kiritilgan barcha ma'lumotlar markaziy serverda avtomatik tarzda saqlanadi.

17. Ma'lumotlar Raqamli hukumatning Ma'lumotlarni qayta ishlash markazida Sog'liqni saqlash vaziri tomonidan tasdiqlangan normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan muddatlarda saqlanadi.

18. Ma'lumotlar yo'qolgan yoki buzilgan taqdirda, tizim operatori tomonidan avtomatik qayta tiklanadi.

#### **VI-bob. Yakuniy qoidalar**

19. Ushbu yo'riqnoma talablariga amal qilish barcha tibbiyot tashkilotlari tomonidan ta'minlanishi shart.

20. Yo'riqnomaga o'zgartirish va qo'shimchalar zarurat tug'ilganda Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan kiritiladi.

21. Tibbiyot tashkiloti rahbarlari yo'riqnomani barcha xodimlarga yetkazish, o'quv-seminarlar tashkil etish va bajarilishini nazorat qilish uchun javobgardir.

22. Mazkur yo'riqnoma talablarini buzilishi aybdor bo'lgan shaxslar qonunchilik hujjatlariga muvofiq javobgar bo'ladilar.

**O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni  
saqlash vazirining 202 5 -yil  
19.11. dagi 355 -son  
buyrug‘iga  
3 -ILOVA**

**“Elektron tibbiy karta” modulidan foydalanish hamda ushbu modullarga  
tegishli ma’lumotlarni uzatish bo‘yicha  
YO‘RIQNOMA**

Ushbu yo‘riqnoma barcha tibbiyot tashkilotlarida “Elektron tibbiy karta” modulidan foydalanish hamda ushbu modullarga tegishli ma’lumotlarni uzatish tartibini belgilaydi.

**I-bob. Umumiy qoidalar**

1. “Raqamli sog‘liqni saqlash” platformasiga ushbu platforma amaliyotga joriy etilgunga qadar Sog‘liqni saqlash vazirligining “Elektron sog‘liqni saqlash” axborot tizimiga integratsiya asosida ulanishi orqali “Elektron tibbiy karta”, “Elektron retsept” moduli bilan belgilangan ma’lumotlarni real vaqt rejimida almashinuvi ta’minlanadi.

2. “Elektron tibbiy karta” moduli tibbiyot tashkilotlarida bemorlar haqidagi ma’lumotlarni raqamlashtirish, ularni yagona ma’lumotlar bazasida yuritilishi hamda ishonchli va xavfsiz ma’lumot almashinuvi jarayonini tashkil etishdan iborat.

Mazkur modul bemorning shaxsiy sog‘liq tarixi, tashxislari, tibbiy ko‘rik natijalari, buyurilgan dori vositalari, tahlillar va davolanish jarayonlari haqidagi ma’lumotlarni elektron shaklda yurituvchi axborot tizimi hisoblanadi.

3. Mazkur moduldan faqatgina tizimida ro‘yxatdan o‘tgan, tizimga identifikatsiya qilingan tibbiyot xodimlari (shifokorlar, hamshiralar, registratorlar va ma’muriy texnik xodimlar) foydalanish huquqiga ega.

**II-bob. “Elektron tibbiy karta” modulidan foydalanish tartibi**

4. Foydalanuvchilarning tizimga kirishi JShShIR orqali identifikatsiya qilinadi va OneID orqali amalga oshiriladi. Har bir foydalanuvchi o‘ziga tegishli login va parol uchun javobgardir.

5. “Elektron tibbiy karta” modulida quyidagi asosiy funksiyalar mavjud:

bemorni modulga kiritish (ro‘yxatdan o‘tkazish);

tashxis va tibbiy ko‘rsatkichlarni kiritish;

laborator va instrumental tahlil natijalarini shakllantirish;

dori vositalari bo‘yicha retseptlarni shakllantirish;

ambulator va statsionar davolanish yozuvlarini elektron yuritish;



elektron tibbiy xizmatlar to'g'risidagi ma'lumotlar eksport qilish yoki boshqa tashkilotga uzatish;

boshqa modullar bilan axborot va ma'lumotlar almashinuvini yo'lga qo'yish.

6. Tibbiyot tashkilotining mas'ul shaxsi har bir foydalanuvchi tomonidan kiritilayotgan ma'lumotlarning to'liqligi, aniqligi va yangilanishi uchun javobgardir.

7. "Elektron tibbiy karta" moduli yordamida shifokorlar tezkor va aniq ma'lumotlarga ega bo'lib, qisqa muddat ichida bemorga samarali tibbiy xizmat ko'rsatilishini ta'minlaydi.

### **III-bob. Ma'lumotlarni uzatish va almashish tartibi**

8. "Elektron tibbiy karta" moduli orqali shakllangan ma'lumotlar Sog'liqni saqlash vazirligining "Yagona tibbiyot axborot tizimi" (keyingi o'rinlarda – DMED)dagi modullar va boshqa tibbiyot tashkilotlarining mavjud axborot tizimlari bilan integratsiya qilingan holda ishlaydi.

9. Ma'lumotlar modullar va axborot tizimlari integratsiyasi orqali (API, HL7, FHIR protokollari yordamida) avtomatik tarzda uzatiladi.

Zarur hollarda tibbiyot tashkilotlarining ma'lumotlari PDF, XML yoki boshqa zaruriy formatlarda eksport qilinib, Sog'liqni saqlash vazirligiga yuboriladi.

10. Ma'lumotlar uzatilishida axborot xavfsizligi talablari qat'iy qo'llaniladi. Har bir uzatilayotgan fayl kriptografik himoya (elektron tasdiqlash usullari, shifrlash algoritmlari) yordamida tasdiqlanadi.

11. Bemorning shaxsiy ma'lumotlarini uzatishda O'zbekiston Respublikasining "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi hamda "Fuqarolarning sog'lig'ini saqlash to'g'risida"gi Qonunlari talablariga qat'iy amal qilinadi.

12. Ma'lumotlar quyidagi hollarda uzatiladi:

bemor boshqa tibbiyot tashkilotiga yuborilganda;

statistika yoki tahliliy hisobotlarni tayyorlash zarur bo'lganda;

Sog'liqni saqlash vazirligining DMEDga integratsiyani amalga oshirish uchun (jumladan, "Elektron Poliklinika", "Elektron retsept", "Elektron yo'llanma" modullari).

### **IV-bob. Foydalanuvchilarning huquq va majburiyatlari**

13. Foydalanuvchi quyidagi huquqlarga ega:

"Elektron tibbiy karta" moduli o'ziga biriktirilgan bemor ma'lumotlariga kirish;

yangi ma'lumot kiritish va mavjud ma'lumotlarni yangilash;

zaruriy hollarda elektron shaklda ma'lumotlarni eksport qilish.

14. Foydalanuvchi uchun majburiyatlar:

tizimdagi ma'lumotlarni maxfiy saqlash;

uchinchi shaxslarga login va parolni oshkor qilmaslik;  
har bir tibbiy yozuvni real vaqtda kiritish;  
noto'g'ri yoki soxta ma'lumot kiritish holatlariga yo'l qo'ymaslik.

15. Foydalanuvchi tomonidan yo'l qo'yilgan buzilishlar uchun javobgarlik amaldagi qonunchilikka muvofiq belgilanadi.

#### **V-bob. Ma'lumotlarni saqlash va arxivlash**

16. "Elektron tibbiy karta" moduli orqali kiritilgan barcha ma'lumotlar markaziy serverda avtomatik tarzda saqlanadi.

17. "Elektron tibbiy karta" modulidagi ma'lumotlar Raqamli hukumatning Ma'lumotlarni qayta ishlash markazida Sog'liqni saqlash vaziri tomonidan tasdiqlangan normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan muddatlarda saqlanadi.

18. Ma'lumotlar yo'qolgan yoki buzilgan taqdirda, tizim operatori tomonidan avtomatik Ma'lumotlarni qayta ishlash markazidan tiklanadi.

#### **VI-bob. Yakuniy qoidalar**

19. Ushbu yo'riqnoma talablariga rioya qilish barcha tibbiyot tashkilotlari tomonidan ta'minlanishi shart.

20. Yo'riqnoma o'zgartirish va qo'shimchalar zarurat tug'ilganda Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan kiritiladi.

21. Tibbiyot tashkiloti rahbarlari mazkur yo'riqnomaning barcha xodimlarga yetkazish, o'quv seminarlari tashkil etish va bajarilishini nazorat qilish uchun javobgardir.

22. Mazkur yo'riqnoma talablarining buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar qonunchilik hujjatlariga muvofiq javobgar bo'ladilar.